

## “XALQARO XUSUSIY HUQUQDA OILAVIY MUNOSABATLARDA QONUNNI CHETLAB O‘TISH INSTITUTINING OQIBATLARI VA XUSUSIYATLARI”

**Nomozov Xusan Axmat o‘g‘li**

*Termiz davlat universiteti “Jinoyat huquqi va fuqarolik protsessi” kafedrası o‘qituvchisi*

**Xursanova Zarina Anvarovna**

*TerDU Yuridik fakulteti 4-bosqich talabasi*

**ANNOTATSIYA:** Xalqaro xususiy huquq doirasida oilaviy munosabatlarning tartibga solinishi zamonaviy huquqiy ilm-fan va amaliyot oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Ushbu maqolada oilaviy munosabatlarda qonunni chetlab o‘tish (fraus legis) institutining nazariy va amaliy jihatları, turli davlat qonunchiliklarida mavjud yondashuvlar hamda ularning qiyosiy tahlili keltirilgan. Shuningdek, “oqsoq nikohlar”, nikoh va ajralishning tan olinishi, bir jinslilar nikohi va bolalar huquqlarini himoya qilishga oid muammolar xalqaro xususiy huquqning asosiy tamoyillari – fraus omnia corrumpit, lex loci celebrationis, favor matrimonii, favor minoris, ordre public international asosida tahlil etilgan. Maqolada xalqaro shartnomalar, jumladan Gaaga konvensiyalari va boshqa xalqaro huquqiy mexanizmlarning milliy qonunchilikka tatbiq etilishi zarurligi asoslab beriladi. Tadqiqot yakunida qonunni chetlab o‘tishga qarshi kurashish, nikoh institutini unifikatsiya qilish va bolalar manfaatlarini ustuvor qo‘yishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ilgari suriladi.

**Kalit so‘zlar:** *Xalqaro xususiy huquq, oilaviy munosabatlar, qonunni chetlab o‘tish (fraus legis), kollizion normalar, nikoh va ajralish, “oqsoq nikohlar”, unifikatsiya, xalqaro konvensiyalar, Gaaga konvensiyasi, bolalar huquqlari.*

**KIRISH.** Xalqaro xususiy huquq huquq tizimida mustaqil o‘rin tutuvchi hamda yuridik fan tarmoqlaridan biri sifatida tan olingan mustaqil huquq sohasi hisoblanadi. Mazkur soha, avvalo, xalqaro maydonda shakllanuvchi xususiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bo‘lib, ular fuqarolik va fuqarolik protsessual huquqi doirasida, shuningdek oilaviy, vorislik, mehnat, tashish, intellektual mulk obyektlari, tadbirkorlik va iqtisodiy protsessual munosabatlar doirasida namoyon bo‘ladi. Bunday munosabatlarning turli davlatlarning fuqarolari yoki yuridik shaxslari o‘rtasida vujudga kelishi, rivojlanishi va bekor bo‘lishi, shuningdek ular yuzasidan kelib chiqadigan nizolarning tartibga solinishi xalqaro xususiy huquqning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilab beradi. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1158-moddasida<sup>1</sup> xalqaro xususiy huquq normalari bilan tartibga solinadigan munosabatlar

<sup>1</sup> Xalqaro xususiy huquq: Darslik / Mualliflar jamoasi || y.f.d., dots. I.Rustambekov umumiy tahriri ostida. –T.:

“chet el elementi mavjud bo‘lgan fuqarolik-huquqiy munosabatlar” sifatida belgilangan. Xalqaro xususiy huquq doirasida vujudga kelayotgan oilaviy-huquqiy munosabatlarga oid masalalar nafaqat normativ-huquqiy qo‘llash va nizolarni amaliy tartibga solish jarayonida, balki mazkur munosabatlarning ilmiy-doktrinal tahlilida ham dolzarb muammolarni yuzaga chiqarmoqda. Ilmiy adabiyotlarda hozirga qadar oilaviy munosabatlarning xalqaro xususiy huquq predmetiga mansubligi borasida yagona va uzil-kesil yondashuv shakllanmagan. Mazkur sohaga oid konseptual qarashlar ikki yo‘nalishga – tor va keng talqinga bo‘linadi. Keng yondashuv tarafdorlari xalqaro xususiy huquq tizimini faqat fuqarolik-huquqiy institutlar bilan chegaralab bo‘lmasligini, balki xususiylik xususiyatiga ega bo‘lgan boshqa huquq sohalari, jumladan, oilaviy huquq institutlarining ham integratsiyasi doirasida talqin etilishini ta’kidlaydilar. Bunday nuqtai nazar bugungi kunda ko‘plab olimlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanib, G.K.Dmitrieva, V.P.Zvekov singari yetakchi huquqshunoslarning asarlarida o‘z ifodasini topgan. Shu bilan birga, tor talqin tarafdorlari esa xalqaro xususiy huquqning fuqarolik-huquqiy tabiati oilaviy yoki mehnat huquqiy munosabatlarini uning predmetiga kiritishga imkon bermasligini asoslab kelmoqdalar. Ularning fikriga ko‘ra, oilaviy-huquqiy munosabatlarning shaxsiy-individual xarakteri ushbu munosabatlarni xalqaro xususiy huquq doirasida tartibga solishga huquqiy asos yaratmaydi. Huquqiy tizimlarning qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, Lotin Amerikasi davlatlari, Sharqiy Yevropa, Jazoir va Rossiya kabi mamlakatlarda oilaviy huquq fuqarolik huquqidan ajratilib, mustaqil huquq sohasi sifatida e’tirof etilgan. Kontinental Yevropa mamlakatlaridan Shveysariya, Italiya va Germaniyada esa nikoh va oila munosabatlarini tartibga soluvchi asosiy manbalar sifatida fuqarolik kodekslarining maxsus bo‘limlari yoki alohida maxsus qonunlar amal qiladi. Shuningdek, oilaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga solishda ommaviy-huquqiy komponent ham alohida ahamiyatga ega. Shu sababli xalqaro xususiy huquqda oilaviy munosabatlar odatda xususiy va ommaviy huquq normalarining o‘zaro uyg‘unlashuvi sifatida talqin etiladi. Ayni paytda xalqaro oila huquqi ko‘pincha xususiy huquqqa daxldor milliy huquq tarmoqlarining bir qismi sifatida baholansa-da, bu sohaga davlat tomonidan aralashuvning ko‘p qirraliligi uni fuqarolik huquqi doirasidagi tartibga solishdan sezilarli darajada farqlantiradi. Mazkur holat davlatning demografik siyosat yuritish, yangi avlodlar rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish va aholini ko‘paytirishga oid strategik dasturlari bilan izohlanadi. Biroq nikoh va oila tushunchalarining ta’riflari barcha huquqiy tizimlarda bir xil qabul qilinmagan. Doktrinal qarashlarda nikoh tushunchasi turlicha – nikoh-sheriklik, nikoh holati yoki nikoh shartnomasi sifatida izohlanadi. Xususiy huquqda esa eng keng tarqalgan

yondashuv nikohni bevosita oilaviy munosabatlar majmui sifatida talqin etishdir.<sup>2</sup> Shu asnoda qonunni chetlab o'tish oilaviy-huquqiy munosabatlarda ham uchrab turadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1162-moddasi<sup>3</sup> “Qonunni chetlab o'tish oqibatlari” deb nomlanib, unga ko'ra Fuqarolik Kodeksi bilan tartibga solinadigan munosabatlar ishtirokchilarining ushbu bo'limning qo'llanilishi lozim bo'lgan huquqqa doir qoidalarni chetlab o'tib, tegishli munosabatlarni boshqa huquqqa bo'ysundirishga qaratilgan kelishuvlari va boshqa harakatlari haqiqiy emas. Bunday holda tegishli davlatning ushbu bo'limga muvofiq tatbiq etilishi lozim bo'lgan huquqi qo'llaniladi. Qonunni chetlab o'tish (evasion / fraude à la loi) — bu shaxsning huquqiy majburiyat yoki normativ cheklovlardan qochish uchun huquqiy shakl va tartiblarni sun'iy ravishda o'zgartirishi, natijada aslida huquqiy tartibga tushishi lozim bo'lgan vaziyatdan qasddan chekinishidir. Ushbu hodisa xususiy huquq doirasida keng uchraydi va shartnoma huquqi, korporativ huquq, meros huquqi singari sohalarda namoyon bo'ladi. Shuningdek, u xalqaro xususiy huquqda ham muhim o'rin tutadi. “Qonunni chetlab o'tish” institutining me'yoriy chegaralari, ya'ni qaysi holat huquqiy manipulyatsiya sifatida baholanishi mumkinligi masalasi bugungi kunda ham huquq nazariyasi va sud amaliyotida bahs-munozarali masala bo'lib qolmoqda. Ushbu institutning nazariy asoslari ko'p hollarda milliy huquq tizimlarida shakllangan bo'lib, ularning qo'llanish chegaralari ham asosan ichki qonunchilik normalari doirasida belgilangan. Shu sababli mazkur institutni xalqaro xususiy huquq kontekstida qo'llash, uni turli huquqiy tizimlar doirasida uyg'unlashtirish hamda umumlashtirish zarurati alohida dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Fransuz sud amaliyotida shakllangan umumiy doktrinaga ko'ra, chet el qonuniga sun'iy ravishda kollizion bog'lovchi yaratish orqali Fransiya qonunchiligida belgilangan taqiqlarni chetlab o'tishga urinish tegishli bitimning haqiqiy emas deb topilishiga olib keladi. Mazkur umumiy qoida 1878-yilda “Bofremon ishi” bo'yicha Kassatsiya sudi qarori asosida shakllangan. Ushbu qarorga sabab bo'lgan holatga ko'ra, fransuz fuqarosi bo'lgan ayol, o'sha davrda amal qilgan Fransiya qonunlariga binoan ajralish mumkin emasligi sababli, Germaniya fuqaroligini qabul qilib, sud orqali nikohdan ajrashadi va yangi nikohga kiradi. Biroq Fransiya sudlari bu nikohni haqiqiy emas deb topdi, chunki birinchi nikohni bekor qilish Fransiya huquqidagi taqiqlovchi normalarni chetlab o'tish orqali amalga oshirilgan edi. Shu tariqa, sud xalqaro xususiy huquqda fraud omnia corrumpit (ya'ni qonunni chetlab o'tish bitimni mutlaqo haqiqiy emas qiladi) prinsipini qo'llash zarurligi haqida xulosa chiqardi. Shu bilan birga, boshqa davlatlarning kollizion huquqida bunday umumiy prinsip mavjud emas. Masalan, Germaniya, Buyuk Britaniya va AQShda (ayrim oilaviy huquqiy masalalardan tashqari) ushbu institut deyarli qo'llanilmaydi. Buyuk Britaniya va AQSh amaliyotida odatda locus regit actum

<sup>2</sup> Xalqaro xususiy huquqda oila munosabatlarida vujudga kelayotgan huquqiy muammolar: yechimlar va takliflar. Abduxakim Ne'matov (maqola)

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi (yangi tahrir)

prinsipi (ya'ni bitim qaysi joyda tuzilgan bo'lsa, o'sha joy qonuni bilan tartibga solinishi) asosiy qoida sifatida amal qiladi. Shunga qaramay, ba'zi hollarda sudlar chet davlat qonunlarini hurmat qilish zaruratidan kelib chiqib, ularni chetlab o'tishga yo'l qo'ymaydi. Masalan, 1929-yilda ingliz sudi Amerika qonunchiligi ta'qiqlagan spirtli ichimliklarni AQShga olib kirishga oid bitimni haqiqiy emas deb topgan (Foster v. Driscoll ishi). Xuddi shuningdek, Regazzoni v. Sethia ishida britan sudi Hindistonning eksportga oid cheklovlarini chetlab o'tishga qaratilgan shartnomani ham haqiqiy emas, deb e'tirof etgan.<sup>4</sup>

Yuqorida ta'kidlanganidek, hozirgi vaqtda nikoh va oilaviy munosabatlar hududiy jihatdan tobora chegara bilmas, turli xil fuqarolikka va ba'zi hollarda apatrid, bipatrid, hamda qochoqlar o'rtasidagi nikohlar yoki nikoh munosabatlari xorijiy davlat hududida sodir bo'layotganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Shunday qilib, oilaviy munosabatlardagi chet el elementi o'zini ishtirokchilardan kamida bittasining chet el fuqaroligi, ishtirokchilardan kamida bittasining fuqaroligi yo'qligi, huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining chet elda yashash joyi, huquqlar obyektining chet elda joylashgan joyi masalan, chet elda turmush o'rtoqlarga tegishli bo'lgan ko'chmas mulkning joylashuvi hamda yuridik faktning chet elda yuz berishi masalan, chet elda nikoh tuzilganligi namoyon qilishi mumkin. Chet el elementi bilan nikoh va oilaviy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning xususiyatlari har bir davlatning milliy, ijtimoiy va diniy omillarga asoslangan o'ziga xos yondashuvlarida namoyon bo'ladi. Moddiy huquqiy normalarning xilma-xilligi tufayli, zaruriy huquqiy tartibni aniqlashning asosiy vositasi kollizion normalar hisoblanadi. Hozirgi kunda xalqaro xususiy huquqda oilaviy-huquqiy munosabatlardagi asosiy kollizion muammolar "oqsoq nikohlar", nikoh shartlari va shakllaridagi tafovutlar, bir jinslilar o'rtasidagi nikohlar, va'da qilingan nikohdan bosh tortishga oid majburlash choralarining noqonuniyligi, monogamiya va ko'pxotinlilik, diniy yoki irqiy cheklovlar, nikoh tuzishda ota-ona, vasiy, diplomatik ruxsatnoma talabi, ajnabiylar bilan nikohni taqiqlash va hokazolar. Moddiy normalarning bir xil emasligi oqibatida ko'pincha "oqsoq nikohlar" yuzaga keladi, ya'ni bir davlatda tan olingan nikoh boshqa davlatda rad etiladi. Bu turli mamlakatlarda nikoh yoshi, nikoh shakli va tartibidagi tafovutlar bilan izohlanadi. Shuningdek, zamonaviy davrda nikoh tushunchasi ham o'zgarib bormoqda. Ayrim yurisdiksiyalarda u erkak va ayol o'rtasidagi ittifoq bilan cheklanmay, bir jinslilar o'rtasidagi nikoh sifatida ham tan olinmoqda. Masalan, Yevropa Inson huquqlari sudi qarorlari, jumladan Schalk va Kopf Avstriyaga qarshi ishi. Ammo bir jinslilar nikohi shariat qonunlari amal qiladigan mamlakatlarda qat'iy man etilgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 120-moddasiga binoan "besoqolbozlik" sifatida kvalifikatsiya qilinadi. Davlatlarning qonunchiligida nikoh shakliga turlicha yondashuvlar mavjud, masalan Rossiya,

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga Sharh: 3-jild

Shveysariya, Fransiya faqat fuqarolik nikohini, Isroil, Iroq, Eron faqat diniy nikohni, Buyuk Britaniya, Daniya, Ispaniya esa kombinatsion tartibni belgilaydi. Masalan, Isroilda nikoh faqat sinagogada<sup>5</sup> qayd etilgandagina tan olinadi. Shuningdek, turli mamlakatlar oila qonunchiligida mavjud bo'lgan tafovutlar xalqaro xususiy huquqda kollizion muammolarni keltirib chiqaradi. Bunday ziddiyatlar asosan nikoh tuzish shakli va tartibi davlatlar kesimida bir-biridan farq qilishi, nikoh yoshining turli yurisdiksiyalarda turlicha belgilanib, ruxsat etilgan yosh oralig'ining mos kelmasligi, qarindoshlik darajalariga qo'yilgan cheklovlarning har xil bo'lishi hamda nikohdan ajralishning asoslari va tartibining bir davlat qonunchiligida e'tirof etilib, boshqasida tan olinmasligi holatlarda namoyon bo'ladi<sup>6</sup>. Xalqaro xususiy huquqda kollizion masalalarning hal qilinishida unifikatsiya jarayonlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, oilaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga solishda huquqiy normalarni birxillashtirishga qaratilgan xalqaro tashabbuslar muhim o'rin tutadi. Mazkur jarayon XX asr boshida, aniqrog'i 1902-yilda qabul qilingan "Er-xotinlarni sud orqali ajratish va nikohni tugatish sohasidagi yurisdiksiya va qonunlar nizolarini tartibga solish to'g'risida"gi Gaaga konvensiyasi bilan boshlangan. Ushbu davrdan buyon nikoh va oila masalalarini tartibga solishga doir 50 dan ortiq xalqaro konvensiyalar ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ularning barchasi amalda kuchga kirmagan. Bugungi kunda oila huquqi sohasidagi eng muhim universal va mintaqaviy xalqaro shartnomalar qatoriga quyidagilar kiradi:

- 2008-yilgi Bolalarni asrab olish to'g'risidagi Strasburg konvensiyasi;
- 2007-yilgi Alimentlarni undirishning xalqaro tartibi hamda bolalarni qo'llab-quvvatlashning boshqa shakllari to'g'risidagi Gaaga konvensiyasi;
- 1996-yilgi Bolalar huquqlarini amalga oshirish to'g'risidagi Strasburg konvensiyasi;
- 1996-yilgi Bolalarni himoya qilish va ota-onalarning mas'uliyati bo'yicha hamkorlik, tan olish va yurisdiksiya to'g'risidagi Gaaga konvensiyasi;
- 1993-yilgi Xorijiy farzand asrab olish va bolalarni himoya qilish bo'yicha hamkorlik to'g'risidagi Gaaga konvensiyasi;
- 1980-yilgi Bolalar vasiyligi va vasiylikni tiklashga oid qarorlarni tan olish va ijro etish to'g'risidagi Lyuksemburg konvensiyasi;
- 1980-yilgi Xalqaro bolalarni o'g'irlashning fuqarolik jihatlarini to'g'risidagi Gaaga konvensiyasi;
- 1978-yilgi Nikohlarning tan olinishi va haqiqiyliigi to'g'risidagi Gaaga konvensiyasi;
- 1970-yilgi Ajralishlar va ajralishlarni tan olish to'g'risidagi Gaaga

<sup>5</sup> Yahudiy ta'limotiga ko'ra, mazkur dinga e'tiqod qiluvchilarning ibodatxonasi.

<sup>6</sup> Rahmonkulova Nilufar Xodjiakbarovna. Xalqaro xususiy huquqda nikoh tuzish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solinishi: (O'quv qo'llanma)

konvensiyasi;

- 1967-yilgi Bolalarni asrab olish to'g'risidagi Strasburg konvensiyasi;
- 1962-yilgi Nikohlarni ro'yxatga olish, nikoh yoshi va nikohga rozilik to'g'risidagi BMTning Nyu-York konvensiyasi.

Mazkur xalqaro shartnomalar majmuasi "xalqaro oilaviy huquq" tushunchasining shakllanishiga asos bo'lgan. Shu bois nikoh va oila bilan bog'liq nizolarni hal qilishda qonunchilikni tanlash usullari alohida ahamiyatga ega bo'lib, amaliyot hamda doktrinada quyidagi asosiy kollizion bog'lovchilar<sup>7</sup> qo'llanadi:

- ✓ oilaviy umumiy mulkning joylashgan hudud qonuni;
- ✓ bolaning shaxsiy qonuni;
- ✓ er-xotinning oxirgi birgalikdagi yashash joyi qonuni;
- ✓ turmush o'rtoqlar doimiy yashab kelayotgan mamlakat qonuni;
- ✓ sud joylashgan mamlakat qonuni;
- ✓ farzandlikka oluvchining shaxsiy qonuni;
- ✓ bolaning doimiy istiqomat joyi qonuni;
- ✓ nikoh tuzilgan joy qonuni.

Xalqaro xususiy huquqda oilaviy munosabatlarni tartibga solishda qonunni chetlab o'tish, nikohni tan olishdagi tafovutlar hamda bolalarning huquqiy himoyasiga oid masalalar eng dolzarb kollizion muammolardan hisoblanadi. Mazkur muammolarni samarali hal etish uchun quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin: Birinchidan, qonunni chetlab o'tish institutiga nisbatan yagona huquqiy mexanizm joriy etilishi zarur. Bunda ***fraus omnia corrumpit tamoyili*** asosiy qoida sifatida tan olinib, sud amaliyotida qonunni chetlab o'tishga qaratilgan bitimlar mutlaqo haqiqiy emas deb e'tirof etilishi lozim. Ushbu yondashuv milliy qonunchilikni xalqaro sud amaliyoti bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, nikoh va oilaviy munosabatlarda turli davlat qonunchiliklari o'rtasida kelib chiqadigan kollizion ziddiyatlarni bartaraf etish uchun xalqaro konvensiyalar doirasida unifikatsiya jarayonini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, ***lex loci celebrationis va favor matrimonii tamoyillariga*** asoslangan holda "oqsoq nikohlar" muammosini kamaytirish, shuningdek, O'zbekistonning nikoh va ajralishlarni tan olishga doir xalqaro shartnomalarga qo'shilishi zarur. Uchinchidan, bolalar bilan bog'liq oilaviy-huquqiy nizolarda ***favor minoris tamoyili*** asosiy mezon sifatida qo'llanilishi shart. Aliment, vasiylik va asrab olish masalalarida bolaning manfaatlari ustuvor bo'lib, Gaaga konvensiyalari kabi xalqaro mexanizmlarning milliy huquqqa integratsiya qilinishi bolalar huquqlarini yanada ishonchli himoya qilish imkonini beradi. Umuman olganda, yuqoridagi tavsiyalar xalqaro xususiy huquqning asosiy tamoyillariga tayangan holda oilaviy munosabatlarda yuzaga keladigan kollizion muammolarni

<sup>7</sup> Xalqaro xususiy huquqda oila munosabatlarida vujudga kelayotgan huquqiy muammolar: yechimlar va takliflar. Abduxakim Ne'matov (maqola)

bartaraf etishga qaratilgan bo‘lib, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

**Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki**, xalqaro xususiy huquq doirasida oilaviy munosabatlarni tartibga solish zamonaviy davrda dolzarb bo‘lgan muammolardan biridir. Nikoh, ajralish, farzandlikka olish, aliment majburiyatlari va boshqa oilaviy-huquqiy institutlarda chet el elementining mavjudligi turli davlatlarning moddiy va kollizion normalari o‘rtasida keskin tafovutlarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, qonunni chetlab o‘tish (fraus legis) institutining amaliy qo‘llanishi, “oqsoq nikohlar” hodisasi, bir jinslilar nikohining turlicha huquqiy baholanishi, shuningdek bolalarning huquqlarini himoya qilish masalalari xalqaro xususiy huquqda eng bahsli kollizion masalalar sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1162-moddasi qonunni chetlab o‘tish oqibatlarini belgilab bergan bo‘lsa-da, ushbu institutning qo‘llanish chegaralarini yanada aniqroq huquqiy mezonlar bilan mustahkamlash zarur. Xususan, fraus omnia corrumpit tamoyili asosida qonunni chetlab o‘tishga qaratilgan bitimlar mutlaqo haqiqiy emas deb topilishi milliy qonunchilikni xalqaro sud amaliyoti bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Shuningdek, nikoh va oila institutlarida davlatlar qonunchiliklaridagi tafovutlar “oqsoq nikohlar” muammosiga olib kelmoqda. Bunday ziddiyatlarni bartaraf etish uchun lex loci celebrationis va favor matrimonii tamoyillari asosida xalqaro standartlarni milliy huquqqa tatbiq etish lozim. Shu bilan birga, O‘zbekistonning nikoh, ajralish va farzandlikka olishni tan olishga oid xalqaro konvensiyalarga qo‘shilishi unifikatsiya jarayonini jadallashtiradi. Bolalar bilan bog‘liq oilaviy-huquqiy nizolarda esa favor minoris tamoyili ustuvor bo‘lib, har qanday qaror qabul qilishda bolaning manfaatlari birinchi o‘ringa qo‘yilishi shart. Aliment majburiyatlari, vasiylik va asrab olish institutlarida xalqaro konvensiyalarning milliy huquqqa integratsiyasi bolalar huquqlarini ishonchli himoya qilishga xizmat qiladi. Umuman olganda, xalqaro xususiy huquqda oilaviy munosabatlarni tartibga solishda qonunni chetlab o‘tishga qarshi kurashish, nikoh institutini unifikatsiya qilish va bolalar manfaatini ustuvor qo‘yish kabi asosiy yo‘nalishlar O‘zbekiston qonunchiligini xalqaro standartlarga yaqinlashtirishga hamda amaliyotda yuzaga keladigan kollizion nizolarni samarali hal etishga imkon yaratadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Xalqaro xususiy huquq: Darslik / Mualliflar jamoasi || y.f.d., dots. I.Rustambekov umumiy tahriri ostida. –T.: TDYU, 2019. – 343 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi (yangi tahriri);
3. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksiga sharh;
4. Rahmonkulova Nilufar Xodji-akbarovna. Xalqaro xususiy huquqda nikoh tuzish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solinishi: O‘quv qo‘llanma.;

5. Some actual problems of family relations in private international law the authors: Novikova Inna Abdullin A.I;
6. Гетьман Павлова И.В Международное частное право ст 334
7. 140 Г. К. Дмитриева Международное частное право учебник ст 574
8. 2 В. А. Цветков Защита семейных прав в Европейском Суде по правам человека;
9. Internet manbalar:
10. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
11. [www.legislation.uz](http://www.legislation.uz)
12. [www.norma.uz](http://www.norma.uz)
13. <https://www.researchgate.net/topic/International-Private-Law/publications>
14. <https://store.lexisnexis.com.au/categories/practice-area/conflict-of-laws-private-international-law-780>